

## Rangli qog'ozdan chumoli yasash



**Chumoli** – eng qadimgi hasharotlardan biri. Chumoli juda mehnatkash va tabiatga katta foyda keltiradi. U ko‘p zararkunandalarni yo‘q qiladi. Chumoli dunyodagi eng kuchli jonivordir, u o‘z vaznidan 10 baravar og‘ir yukni ko‘tarishi mumkin. Chumoli ajoyib quruvchi hamdir. U o‘ziga nihoyatda qoyilmaqom inlar quradi va yashash joyini toza saqlaydi. Chumolilar ahil va inoq oila bo‘lib yashaydi. Oiladagi har bir chumolining o‘z majburiyati bo‘lib, ular quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- qo‘riqchi chumolilar;
- ishchi chumolilar;
- razvedkachi chumolilar;
- enaga chumolilar;
- ovchi chumolilar.



Keling, chumolining ko‘rinishini eslaylik. Uning ko‘zlari boshida joylashgan, ikkita mo‘ylovi ham bor. Mo‘ylovlarini harakatlantirib, narsalarni hidlaydi va paypaslab ko‘radi. Chumoli uyasiga yo‘lni o‘ziga xos hidi orqali topadi. Chumolining qulqlari yo‘q. Ko‘krak qismi boshining orqasida joylashgan bo‘lib, ingichka beli gavdasini qorinchasi bilan bog‘laydi. Ba’zi chumolilarning qorinchasi tagida zaharli nishi bo‘ladi. Chumolilarning baquvvat jag‘i va uch juft oyog‘i ham bor.



3

QR-kodni  
skanerlang

1



2



3



4



5



6



7



8



9



10



11